
BAYRAM SHUKUHI MEHNATOBOD MAHALLASIDA

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra joylarda “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanimiz!” shiori ostida bayram tadbirlari tashkillanmoqda.

Ayni kunlarda Toshloq tumanida mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari, milliy kino kunlari bo‘lib o‘tmoqda.

“Mehnatobod” mahalla fuqarolar yig‘inida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tashabbusi bilan mustaqillik bayramiga bag‘ishlab tashkillangan madaniy-ma‘rifiy tadbirda mazkur mahallada yashovchi aholi uchun ko‘tarinkilik bag‘ishlandi.

2024-08-10 08:25:00